

**TOSHKENT XALQARO UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc. 22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
SAMARQAND FILIALI**

**BARATOV SA'DULLA NORJIGIT O'G'LI**

**O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA BUDJET  
SIYOSATI YO'NALISHLARIDAN FOYDALANISH USTUVORLIKLARI**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract for doctor of philosophy (PhD) in  
Economics**

**Baratov Sa’dulla Norjigit o‘g‘li**

О‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishda budget siyosati yo‘nalishlaridan foydalanish ustuvorliklari .....3

**Баратов Саъдулла Норжигит угли**

Приоритеты использования направлений бюджетной политики в снижении бедности в Узбекистане .....25

**Baratov Sadulla Norjigit ugli**

Priorities of using budget policy directions in poverty reduction in Uzbekistan ....49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....54

**TOSHKENT XALQARO UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc. 22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
SAMARQAND FILIALI**

**BARATOV SA'DULLA NORJIGIT O'G'LI**

**O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA BUDJET  
SIYOSATI YO'NALISHLARIDAN FOYDALANISH USTUVORLIKLARI**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi Oliy attestasiya komissiyasi tomonidan B2023.1.PhD/Iqt2757 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertasiyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida bajarilgan.  
Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tiu.uz) va «Ziyonet» ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Raxmonov Dilshodjon Alidjonovich  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** Ruziyeva Dilobar Isomjonovna  
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich  
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** Xalqaro Nordik universiteti

Dissertasiya himoyasi Tashkent International University huzuridagi DSc.22/29.12.2023.I.175.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «20» 06 kuni soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi.  
Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 7-uy. Tel.: (99895) 131-55-55; faks: (99895) 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz

Dissertasiya bilan Tashkent International Universityning Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 7. Tel.: (99895) 131-55-55; faks: (99895) 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz

Dissertasiya avtoreferati 2024-yil «25» 06 kuni tarqatildi.  
(2024 yil «20» 06 dagi 1 raqamli reestr bayonnomasi).



**N.X. Jumayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**A.T. Absalamov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Z.T. Mamadiyarov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan uzoq muddatli islohotlarni aks ettirgan budjet siyosatini amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Budjet siyosati davlat mablag'lari hisobidan umumjamiyat manfaatlarini ko'zlagan holda daromadlar tengsizligini kamaytirishga qaratilgan ustuvorliklarni ta'minlash kabi jihatlar bilan ifodalanmoqda. Jahon bankining tahlillarida ham pandemiyaning sezilarli ta'siri o'z aksini topganligini qayd etish lozim. Mamlakatlarning shahar hududlarida daromadlar tengsizligini oshishiga sabab bo'ldi va kambag'al oilalarga ta'sir qildi. O'rtacha hisoblaganda o'rganilgan kam va o'rta daromadli 34 mamlakatda kambag'allik 0,9 foizga ortgan bo'lsa, Sub-saharian mamlakatlarida 1,3 foizga oshgan<sup>1</sup>. Jahon iqtisodiyotining pandemiya ta'sirida kambag'allikni qisqartirish birinchidan, budjet xarajatlarida ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarini moliyalashtirish natijadorligi, ikkinchidan aholi daromadlari tengsizligini bartaraf etish, uchinchidan ijtimoiy himoya vositalari manzilliligini ta'minlash orqali o'z aksini topmoqda.

Jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari ilmiy tadqiqot yo'nalishlarida kambag'allikni qisqartirishda davlat xarajatlari istiqbolliligini belgilash va uning samaradorligini oshirish yo'llari ustuvorlik kasb etmoqda. Inson taraqqiyoti kambag'allik kategoriyasiga nisbatan teskari proporsional ko'rsatkich bo'lib, uning shakllanishi ijtimoiy himoya dasturlariga bo'lgan zaruratni kamaytirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy sohani moliyalashtirish kambag'allikka qarshi kurashni o'zida to'g'ridan-to'g'ri aks ettirmasada, aholini umumiy kambag'allikka tushib qolishdan himoya qiladi. Bu borada, budjet xarajatlarining ijtimoiy siyosatni moliyalashtirishdagi qisqa va uzoq muddatli natijadorligi, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida budjetlashtirish metodlarining optimallashtirilishi, aholi daromadlari tengsizligini kamaytirish va ijtimoiy himoya institutining zamonaviy tendensiyalari bo'yicha o'ziga xos xususiyatlarni tadqiq etish kabi ilmiy tendensiyalar asosiy o'rin tutmoqda.

O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishga bo'lgan e'tiborning jadallashuvi aholi daromadlari tengsizligini kamaytirish, ijtimoiy siyosatning qisqa va uzoq muddatli natijadorligini ta'minlash budjet siyosatida xarajatlaridan foydalanish samaradorligini oshirishni talab etmoqda. Kambag'allikni qisqartirishda ijtimoiy himoya nafaol ijtimoiy institut sifatida ijtimoiy siyosatni to'ldirishi natijasida budjet xarajatlarining manzilliligini ta'minlash muhim xususiyatga ega. Shuningdek, ijtimoiy himoya manzilliligi va maqsadliligini ta'minlashda aholiga ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar uchun mablag'larni bevosita mahalla yettiligi ijtimoiy xodimi instituti orqali ajratish bilan ijtimoiy himoya natijadorligini oshirish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bu esa, budjet xarajatlaridan birinchi navbatda ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarini uchun natijadorlik mezonlarini ishlab chiqish orqali kambag'allikni kamaytirish, ijtimoiy himoya instituti vositalaridan samarali

---

<sup>1</sup> The impact of COVID-19 on poverty and inequality: Evidence from phone surveys. <https://blogs.worldbank.org/opendata/impact-covid-19-poverty-and-inequality-evidence-phone-surveys>

foydalanish, inson kapitalini rivojlantirish uchun davlat xarajatlarida ustuvorlikni belgilashni ishlab chiqishni tadqiq etishning dolzarbligini ko'rsatib beradi.

Ushbu tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2018-yil 7-dekabrda PF-5590-son "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida", 2022-yil 11-maydagi PF-134-son "2022–2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" farmonlari, 2021-yil 13-apreldagi PQ-5072-son "Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Ushbu dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" deb nomlangan strategik mavzularining ustuvorligiga muvofiq ravishda bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Budjet siyosatining ustuvorliklari, xususan xarajatlarini samarali boshqarish orqali kambag'allikni kamaytirishga nisbatan qator ilmiy yondashuvlarni ko'rish mumkin. Jumladan, ingliz tilida olib borilgan tadqiqotlarda D.Bloom, S.Chen, M.McGovern, K.Prettner, V.Candeias, M.Dynarski, S.Fan, L.Zhang, X.Zhang, A.Fozzard, M.Holmes, J.Klugman, K.Withers, U.Saha, N.Chakraborty, S.Verguet, J.Kim, D.Jamison, A.Glassman, P.Wolf, A.Smit tomonidan amalga oshirilgan<sup>2</sup>.

Rus tilida amalga oshirilgan tadqiqotlarda ham budjet siyosatini kambag'allikni qisqartirishdagi roli alohida ahamiyatga ega ekanligi tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotlarni quyidagi olimlarning ilmiy ishlarida kuzatish mumkin<sup>3</sup>: Y.Andreyeva,

---

<sup>2</sup> Bloom, D. E., Chen, S., McGovern, M. E., Prettnner, K., & Candeias, V. (2018). The Economic Benefits of Health Care Reform in Sub-Saharan Africa: Results from Ghana and Kenya. *PLOS Medicine*, 15(1), e1002482. doi: 10.1371/journal.pmed.1002482.; Dynarski, M., et al. (2019). The Effects of School Vouchers on College Enrollment: Experimental Evidence from New York City. *Journal of Labor Economics*, 37(S2), S443-S482.; Fan, S., Zhang, L., & Zhang, X. (2002). Growth, inequality, and poverty in rural China: The role of public investments. Research Report No. 125. International Food Policy Research Institute.; Fozzard A., Holmes M., Klugman J., va Withers K. "A sourcebook for Poverty Reduction Strategies: Core techniques and cross-cutting issues". Интернет манба: [www.documents.worldbank.org](http://www.documents.worldbank.org).; Saha, U. R., van Doorslaer, E., & Chakraborty, N. (2018). Impact of Vouchers on the Utilisation of Maternal Health Care Services in Cambodia. *Journal of Health Economics*, 60, 96-109. doi: 10.1016/j.jhealeco.2018.08.006.; Verguet, S., Kim, J. J., Jamison, D. T., & Glassman, A. (2015). Extended Cost-Effectiveness Analysis for Health Policy Assessment: A Tutorial. *The Lancet Global Health*, 3(12), e745-e752. doi: 10.1016/S2214-109X(15)00069-3.; Wolf, P., et al. (2019). Do School Vouchers Improve Student Performance? Evidence from the Louisiana Scholarship Program. *Journal of Policy Analysis and Management*, 38(2), 267-290.; А.Смит. "Исследование о природе и причинах богатства народов" [https://www.gumer.info/bibliotek\\_Buks/Econom/smit/smit\\_1.pdf](https://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Econom/smit/smit_1.pdf).

<sup>3</sup> Андреева Е., Бычков Д.Г., Фектистова О.А. Новые меры социальной поддержки семей с детьми: оценка государственных расходов//Финансовый журнал. – М., 2018. - №2. – С. 36-47.; Бычков Д.Г., Фектистова О.А., Андреева Е. Инвентаризация бюджетных мер в сфере социальной защиты населения: на пути к адресности системы мер социальной поддержки//Международный бухгалтерский учет журнал. – М., 2016. - №17. – С. 46-62.; Кондратенко Г.В. 30-летие социальных реформа в КНР (1978-2008 гг.): реформирование системы занятости и системы социального обеспечение//Ойкумена. 2009. – С. 30-40.; Левченко Е.А. Социальная защита отдельных категорий граждан странах ЕС: опыт Германии//Экономика труда. – М., 2016, - №4, - 371-380.; Михалкина Е.В., Чжан С. (2021). Роль историко-эволюционного подхода в развитии системы социальной защиты в Китае // *Journal of Economic regulation (Вопросы регулирования экономики)* 12(3): 44-57 DOI: 10.17835/2078-5429.2021.12.3.044-057; Цзяньган В. Борьба с бедностью в Китае: опыт и

D.Bichkov, O.Fektistova, G.Kondratenko, Y.Levchenko, Y.Mixalkina, V.Szyanggan, V.Shegolevskiy shular jumlasidan.

O‘zbekistonda ham kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan, ularda turli ko‘rsatkichlarning o‘zaro bog‘liqligi, o‘ziga xos jihatlari tahlil etilgan. O.Abdug‘aniyev, D.Baxramova, B.Baxtiyorov, X.Boyev, N.Jumayev, D.Raxmonov, N.Ibragimova, G.Qosimova, M.Mirzamaxmudova, Sh.Mustafakulov, N.Murodullayev, R.Xamidov, M.Umurzaqova, R.Xasanov, B.Usmonov, P.Xoshimov tomonidan kambag‘allikni kamaytirishga bo‘lgan yondashuvlarning turli rakurslar doirasida tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shunday bo‘lsada, budjet siyosatining ustuvorligiga oid ilmiy ishlarning kam ekanligi yoki mavjudmasligi tanlagan mavzuyimiz doirasida tadqiqotlar olib borish dolzarbligini ko‘rsatib beradi.<sup>4</sup>

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “O‘zbekiston Iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazida IL21101893-sonli “Kambag‘allikni kamaytirish va aholi turmush farovonligini oshirishga qaratilgan ilmiy-nazariy yondashuvlarni ishlab chiqish” mavzusidagi fundamental ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan budjet xarajatlari siyosati ustuvorliklari yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

aholini ijtimoiy himoya qilish kambag‘allikka qarshi kurashning o‘ziga xos omili ekanligini asoslash.

davlat budjetidan kambag‘allikka qarshi kurash uchun ijtimoiy siyosat xarajatlari, ularning nazariy asoslarini tadqiq etish.

xorijiy mamlakatlarda kambag‘allikni qisqartirishda budjet siyosatining rivojlanish xususiyatlarini aniqlash va baholash.

---

перспективы// Социология. 2021, №4. – С. 156-165.; Щеголевский В.А. Глобальный демографический кризис с позиций теории Т.Мальтуса и неомальтузиенцев. Journal of economic history and history of economics. 2016, vol. 17, no. 2, pp.278-296. ISSN-2308-2488.

<sup>4</sup> Abdug‘aniyev O.A. Iste‘mol savatiga kiruvchi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning ekonometrik modellari: i.f.d. ... avtoreferati. – Urganch, 2022 y. – 70 b.; Baxramova D.B. Aholini ijtimoiy himoyalashning asosiy yo‘nalishlarini iqtisodiy-statistik tahlili (Qashqadaryo viloyati misolida): i.f.b.f.d. ... avtoreferati. – T., TDIU., 2018 y. – 56 b.; Baxtiyorov B. B. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo‘nalishlari: i.f.b.f.d. ... avtoreferati. – T., O‘zMU., 2020 y. – 55 b.; Boyev X.I. Aholini ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish davlatni bosh vazifasi//Iqtisod va moliya jurnali. – T., 2020. - №4 (136). – B. 127-133.; Jumayev N., Raxmonov D., Kambag‘allik – makroiqtisodiy barqarorlikning dolzarb muammosi//Moliya va bank ishi ilmiy elektron jurnali. -T., BMA. - 2020 yil, 2-son. B. 238-248.; Ibragimova N.M. Aholi iste‘molini makroiqtisodiy prognozlashtirishning uslubiy yondashuvlarini takomillashtirish: i.f.b.f.d. ... avtoreferati. – T., PMTL., 2019 y. – 64 b.; Qosimova G.A. Ijtimoiy-madaniy sohalarini rivojlantirishda byudjet siyosati. – Toshkent: Moliya, 2004. – B. 13.; Mirzamaxmudova M.O. Aholining ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlamlarini aniqlashning nazariy asoslarini takomillashtirish: i.f.b.f.d. ... avtoreferati. – T., O‘zMU., 2022 y. – 58 b.; Mustafakulov SH.I., Murodullayev N., Xamidov R. O‘zbekistonda kambag‘allikni aniqlash va qisqartirish davlat siyosati darajasida. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” Ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2020 yil; Umurzaqova M.N. O‘zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilishda tibbiy sug‘urtani rivojlantirish istiqbollari: i.f.b.f.d. ... avtoreferati. – T., O‘zMU. 2021. – 57 b.; Xasanov R., Usmonov B. O‘zbekistonda kambag‘allik va uni qisqartirish yo‘llari. 06.03.2020y. <http://review.uz>.; Xoshimov P.Z., Abdullayeva Sh.Y. Aholini ijtimoiy himoya qilishning nazariy asoslari//Iqtisod va moliya jurnali. – T., 2012. - №9. – B. 21-27.

O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishda budjetning ijtimoiy siyosatining o‘ziga xos jihatlarini aniqlash va baholash.

ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarining kambag‘allikni qisqartirishdagi o‘rnini asoslash.

O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishda budjet siyosatidan foydalanishni takomillashtirish yo‘nalishlari bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob‘yekti** sifatida O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishda budjet siyosatining xarajatlar yo‘nalishlari tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** O‘zbekiston budjeti xarajatlari ijtimoiy siyosat yo‘nalishlarini ta’minlash jarayonida vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada umumlashtirish, so‘rovnoma, guruhlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, istiqbolli prognozlashtirish, qiyosiy taqqoslash, induksiya va deduksiya, iqtisodiy-matematik modellashtirish singari usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

kambag‘allikni qisqartirishda ijtimoiy himoya nafaol ijtimoiy institut sifatida ijtimoiy siyosatni to‘ldirishi natijasida budjet xarajatlarining manzilliligini ta’minlash asoslangan.

“Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimiga kiritilgan kambag‘al oilalar farzandlariga bola nafaqasi miqdorini tayinlashda har bir oila a’zolarining yoshi, oila to‘liqmasligidan kelib chiqib belgilash taklif etilgan.

xususiy sektorda ishlovchi ayollarning homiladorlik nafaqa pulini budjet mablag‘lari hisobidan to‘lab berish orqali gender tengligini ta’minlash hamda ayollarni mehnatga layoqatsizlik davrida kambag‘allik riskidan himoya qilishi asoslangan.

ijtimoiy himoya manzilliligi va maqsadliligini taminlashda aholiga ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar uchun mablag‘larni bevosita mahalla yettiligi ijtimoiy xodimi instituti orqali ajratish bilan ijtimoiy himoya natijadorligini oshirish asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

O‘zbekistonda ijtimoiy siyosat davlat budjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilishi va ularni samarali amalga oshirilishi kabi jihatlar bilan davlatning e’tiborini ifoda etishi va ijtimoiy siyosatning faol va nafaol shakllariga asoslangan holda amalga oshirilishi iqtisodiy mohiyati jihatidan chuqur mazmunga ega ekanligi asoslangan.

Kambag‘allikni qisqartirishda budjet siyosatidan foydalanishning qisqa va uzoq muddatli natijadorligini asoslash orqali budjet xarajatlaridan foydalanish ustuvorligini ta’minlash taklif etilgan.

yosh bolali oilalarga to‘lanadigan moliyaviy yordam pullarining bola yoshiga qarab tabaqalashtirish. Bunda bolaning yoshiga doir talab va ehtiyojlarini inobatga olgan holda iste’molni inobatga olish bilan birga, vaksinatsiya olishning davlat tomonidan ta’minlanmaydigan shakllarini ham e’tiborga olish muhimligi asoslangan.

tomorqa bilan bog'liq jihatlarda daromadni hisoblab chiqarishda yil fasllarining davriga nisbatan yondashuvlar inobatga olinishi zarurligi asoslangan.

davlat va xususiy maktab ta'limi muassasalari o'rtasida raqobat muhitining shakllanishi ta'lim sifatining oshishiga olib keladi. Xususiy ta'lim bozorida narxlarning barqarorligiga xizmat qilishi isbotlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsion tadqiqot olib borish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat Statistika agentligining rasmiy ma'lumotlari va Xalqaro moliya institutlarining budjet xarajatlarining ijtimoiy siyosatga doir rasmiy statistik ma'lumotlaridan foydalanilganligi, meyoriy-huquqiy hujjatlarning mavzuga tegishli qismlari atroflicha ko'rib chiqilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mamlakatimizda budjet xarajatlarining ijtimoiy siyosatni ta'minlash, bu borada kambag'allikni kamaytirish va aholi daromadlari tengsizligini kamaytirishning metodologik asoslarini tadqiq etish va budjet siyosatining kambag'allikni kamaytirishdagi rolini rivojlantirishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarni olib borishda keng foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan O'zbekistonda budjet xarajatlarining ijtimoiy siyosatni amalga oshirish orqali kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan tizimni isloh etishga bag'ishlangan ilmiy konsepsiya, qonunosti hujjatlarni ishlab chiqish, oliy ta'lim muassasalarida "Moliya", "Davlat moliyasini boshqarish" va "Davlat budjeti" singari fanlarning o'quv dasturini ishlab chiqish va uning amaliy bazasini mustahkamlash mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishda budjet siyosati ustuvorliklaridan foydalanishni takomillashtirish yo'nalishlari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

kambag'allikni qisqartirishda ijtimoiy himoya nafaol ijtimoiy institut sifatida ijtimoiy siyosatni (ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlarini) to'ldirishi natijasida budjet xarajatlarining manzilliligini ta'minlashga doir taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-175-son Farmoni 2,3-bandi 8-maqсад yo'nalishlarini ishlab chiqilishida foydalanilgan (Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 16-noyabrdagi 01/00-03/07-11315-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, kambag'allikni qisqartirishda inson kapitalini rivojlantirish orqali ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi sonini qisqarishiga hamda oilaning minimal daromad manbayi ta'minlanishiga xizmat qildi.

"Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimiga kiritilgan kambag'al oilalar farzandlariga bola nafaqasi miqdorini tayinlashda har bir oila a'zolarining yoshi, oila to'liqmasligidan kelib chiqqan holda belgilashga doir taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-175-son Farmoni 2,3-bandi 8-maqсад yo'nalishlarini ishlab chiqilishida foydalanilgan (Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 16-noyabrdagi 01/00-

03/07-11315-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, Qonunda belgilangan nafaqalar va boshqa turdagi ijtimoiy yordamning miqdorlari rasman belgilangan eng kam iste'mol xarajatlarini kambag'allik chegarasi 620 ming so'mdan kam bo'lmashligiga ilmiy asos yaratildi.

xususiy sektorda ishlovchi ayollarning homiladorlik nafaqa pulini budjet mablag'lari hisobidan to'lab berish taklifi gender tengligini ta'minlash hamda ayollarni mehnatga layoqatsizlik davrida kambag'allikka riskidan himoya qilishga doir taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-175-son Farmoni 2.2-bandi 6-maqсад yo'nalishlarini ishlab chiqilishida foydalanilgan (Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 16-noyabrdagi 01/00-03/07-11315-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, milliy qonunchilikni Xalqaro mehnat tashkilotining 1952-yildagi "Ijtimoiy ta'minotning minimal me'yorlari to'g'risida"gi 102-sonli Konvensiyasiga muvofiqlashtirishga imkon berdi.

ijtimoiy himoya manzilliligi va maqsadlilikini oshirishda aholiga ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar uchun mablag'larni bevosita mahalla yettiligi ijtimoiy xodimi darajasida tartibga solish amaliyotini joriy etish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-175-son Farmoni 2.1-bandi 2-maqсад yo'nalishlarini ishlab chiqilishida foydalanilgan (Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 16-noyabrdagi 01/00-03/07-11315-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, respublikaning 208 ta tumanida ijtimoiy himoya maqsadlilikini ta'minlashda professional ishtirokchilarning faoliyat olib borishiga imkoniyat yaratib berdi.

**Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 9 ta, jumladan, 6 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprotatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda, ilmiy-amaliy konferensiyalarda 9 ta ma'ruza tezislari nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tarkib topgan. Dissertatsiya hajmi 139 betni tashkil etadi.

## DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda ob'yekt va predmeti, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va joriy etilishi, dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Kambag‘allikni qisqartirishda budjet siyosatidan foydalanishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida aholini ijtimoiy himoya qilish kambag‘allikka qarshi kurashning o‘ziga xos omili ekanligi, davlat budjetidan kambag‘allikka qarshi kurash uchun xarajatlar, ularning nazariy jihatlari, bu borada xorijiy mamlakatlarda kambag‘allikni qisqartirishda budjet siyosatining rivojlanish xususiyatlari tadqiq etilgan va ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan.

Davlatning ijtimoiy himoya elementlaridan ko‘zlangan maqsad aholining kam daromadli qatlamini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va milliy daromadni teng taqsimlashga erishish choralari amalga oshirish hisoblanadi. Ijtimoiy himoya masalasi davlatchilikning ilk namunalarida paydo bo‘lganligiga va uni ilmiy-nazariy jihatdan joriy etish o‘rganilganligini qayd etish lozim. Bu borada, buyuk sarkarda Amir Temur tomonidan belgilangan va amalga oshirilgan tajriba ham alohida e‘tiborga molik.

Amir Temurning “Temur tuzuklari” nomli asarining “Turli mamlakatlar aholisiga munosabat, ularning ahvolidan xabardor bo‘lish, avliyolar va din peshvolarining mozorlarini tuzatish, vaqf hamda nazr ishlarini tartibga keltirish tuzuki” nomli bo‘limida “Faqiru miskin, nogironlarga nafaqa tayin qilsinlar” degan qoida belgilangan<sup>5</sup>.

Buyuk Britaniyalik taniqli iqtisodchi U.Petti qiymatning mehnat nazariyasini ishlab chiqishi bilan inson (xodim)ning faoliyati hayot vositalari qiymati bilan aniqlanishini ilgari suradi. Mazkur olim davlat xarajatlarining asosiy qismi maktab va universitet ta‘limiga yo‘naltirilishi lozim degan g‘oyani asoslashga xarakat qilgan.

U.Pettidan keyingi davrda A.Smit va D.Rikardo kabi tarixiy olimlar ham o‘zlarining ilmiy qarashlarini asoslab o‘tadilar. A.Smit o‘zining “Xalqlar boyligi sabablari va tabiati<sup>6</sup>” nomli asarida davlatning xarajatlari yo‘nalishlariga nisbatan fikrlarini keltirib o‘tadi. Unga ko‘ra, davlat xarajatlari – mudofaa, ijtimoiy tenglikni ta‘minlash va jamoat ishlari uchun yo‘naltirilishi lozimligini ta‘kidlab o‘tadi.

O‘zbekistonda davlat budjetining ijtimoiy soha va ijtimoiy himoya xarajatlari alohida satrlarda keltirilgan. Ularning xarajatlar yo‘nalishi turli xil bo‘lsada, makroiqtisodiy jihatdan mamlakatda kambag‘allikni oldini olishga qaratilgan bo‘ladi. Ta‘kidlab o‘tganimizdek, ijtimoiy soha ijtimoiy himoya siyosatining nafaol shakli bo‘lib, aholini ommaviy ravishda kambag‘allikka tushib qolishdan himoya qilishga qaratiladi. Ijtimoiy himoya esa aholining ma‘lum qatlamini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni o‘zida aks ettiradi va kambag‘allikning aniq chegaralari asosida faoliyatni amalga oshiradi.

Davlat budjetidan ijtimoiy siyosatni amalga oshirish tadbirlarini moliyalashtirishda manzillilik tamoyili muhim xususiyat kasb etadi. Mablag‘larni aniq mezonlar asosida tanlab olingan aholi qatlamiga yetib borishi mablag‘lardan foydalanish samaradorligini ta‘minlashda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

<sup>5</sup> A.Temur tuzuklari. <http://www.temurtuzuklari.uz/uz/clause/58>

<sup>6</sup> А.Смит. "Исследование о природе и причинах богатства народов" [https://www.gumer.info/bibliotek\\_Buks/Econom/smit/smit\\_1.pdf](https://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Econom/smit/smit_1.pdf)

Bizningcha, ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda ijtimoiy himoya va ijtimoiy soha xarajatlarini mohiyatan bir-biridan ajratib berilishi budget mablag'laridan kambag'allikka qarshi kurashda foydalanishning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Inson taraqqiyoti kambag'allik kategoriyasiga nisbatan teskari proporsional ko'rsatkich bo'lib, uning shakllanishi ijtimoiy himoya dasturlariga bo'lgan zaruratni kamaytirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy sohani moliyalashtirish kambag'allikka qarshi kurashni o'zida to'g'ridan-to'g'ri aks ettirmasada, aholini umumiy kambag'allikka tushib qolishdan himoya qiladi. Shuningdek, uzoq muddatli davrdagi rejalarni aks ettirib, inson taraqqiyotini rivojlantirishga shart-sharoit yaratib beradi. Ta'kidlash lozim, ijtimoiy sohada xususiy sektorning ham ishtiroki jahon tajribasidan ma'lum va unda ayrim tijoriy xususiyatlar bo'lishi mumkin (1-rasmga qarang).



**1-rasm. Kambag'allikka qarshi kurashning davlat budgetidan amalga oshirilishi<sup>7</sup>**

Davlat mamlakatda iqtisodiy o'sishni barqarorligini ta'minlashda yalpi talabni doimiy shakllantirib turishga harakat qiladi. Bundan ko'zlangan maqsad yalpi ichki mahsulotni o'sishiga erishish va ishlab chiqarish jarayonlarini ta'minlab turishga qaratiladi. O'zbekistonda ijtimoiy himoya orqali quyidagi maqsadlarga erishish nazarda tutilib kelinadi:

aholini kambag'allikka tushib qolganda himoya qilish;

yalpi ichki mahsulotning xarajatlar usuli orqali o'sishiga erishish uchun yalpi talabni shakllantirishda davlat budjeti mablag'laridan foydalanish;

mamlakatda inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan islohotlarni jadal amalga oshirish;

<sup>7</sup> Tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan

kam ta'minlangan aholida davlatning ijtimoiy siyosatiga bo'lgan ishonchni saqlab turish kabilarni shular jumlasiga kiritish mumkin.

Davlat budjetidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy xarajatlar davlatning imidjini va iqtisodiy barqarorligini saqlab turishga xizmat qilar ekan, boshqa jihatdan mablag'lardan maqsadli va manzilli foydalanish ayni dolzarblik kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, davlat budjeti mablag'laridan kambag'allikka qarshi kurash tadbirlarini moliyalashtirishda aniq qoidalarni ilmiy asosda ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, aholini kambag'allikdan himoya qilishda ijtimoiy siyosatning nafaol spektri muhim ekan. Mazkur tizimning muvaffaqiyatsiz tarzda faoliyat olib borishi faol ijtimoiy siyosatni amalga oshirishni taqozo qila boshlashi tadqiqotlar ma'lum bo'lmoqda. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy siyosatni shakllantirishda davlatning nafaol ijtimoiy himoya strategiyasi muhim hisoblanadi. Bu esa, ijtimoiy sohaning tarkibiy bo'g'inlari ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirish zaruratini ko'rsatib beradi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda ijtimoiy siyosat davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishi va ularni samarali amalga oshirilishi kabi jihatlari bilan davlatning e'tiborini ifoda etmoqda. Shuningdek, ijtimoiy siyosatning faol va nafaol shakllariga asoslangan holda amalga oshirilishi iqtisodiy mohiyati jihatidan chuqur mazmunga ega bo'lmoqda.

2022-yilda ijtimoiy yordamning oylik to'lovi hajmi 449 yevroni tashkil etmoqda. Umuman olganda, ijtimoiy yordam minimal yashash xarajatlaridan kelib chiqib belgilanadi va u hududlar kesimida farqlanadi. Farqlanishning asosiy sababi narxlar pariteti inobatga olinadi. Shu boisdan, bir to'lovning turli hajmlari bo'lishi mumkin.

Germaniyada davlat budjetidan ishsizlik nafaqasi va ijtimoiy yordam puli xarajatlari moliyalashtiriladi. Ijtimoiy yordamning hajmi uning oluvchilarining vaziyatidan kelib chiqib o'zgaradi. Masalan oluvchining yoshi bunda muhim rol o'ynaydi (1-jadvalga qarang)<sup>8</sup>.

## 1-jadval

### 2022-yilda Germaniyada ijtimoiy nafaqalar hajmi (ishsizlik va moddiy yordam)

Hayotiy holat	Nafaqa hajmi, yevro	Ijtimoiy yordam mezoni kategoriyasi
Beva ayol (erkak)	449	1
Birga yashaydigan o'smir, 1 kishiga	404	2
mehnatga layoqatsiz, nogiron yoki shifoxonadagi o'smir	360	3
Ota-onasi bilan yashaydigan 25 yoshgacha ishsiz o'smir	360	4
14-18 yoshdagilar	376	5
6-13 yoshli bolalar	311	6
5 yoshgacha bolalar	285	7

<sup>8</sup> Пособия в Германии в 2022, 2021 году: размер и виды пособий по безработице, на детей, пожилым и инвалидам, мигрантам и беженцам. <https://ru-geld.de/benefits/>

Germaniyadagi ijtimoiy yordamning xususiyati shundan iborat bo‘lmoqdaki, mablag‘lar oilaga emas, balki shaxsga qaratilganligi bilan alohida ahamiyatga ega ekan.

Xulosa qilib aytganda, Germaniya tajribasidan kelib chiqib, O‘zbekiston sharoitida quyidagi jihatlarni joriy etish maqsadga muvofiq:

Ijtimoiy vazifalarni bozor iqtisodiyoti sharoitlariga moslashtirish.

Ijtimoiy himoyaning muhim elementi sifatida sug‘urta munosabatlarini joriy etish. Bunda ijtimoiy sug‘urtaga to‘lanadigan badalning davlat (ish beruvchi) va sug‘urtalanuvchi o‘rtasidagi ulushlar bo‘yicha taqsimotini ishlab chiqish zarur. O‘z navbatida, davlatning kimlar uchun sug‘urta badallarini to‘lab berishi aniq mezonlari mavjud bo‘lishi lozim.

Ijtimoiy yordamning hajmini oluvchilar va hududlar kesimi doirasida narxlar pariteti bo‘yicha tabaqalashtirilgan tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Ijtimoiy yordamni oilaga birlashtirganda uning a‘zolari sonini inobatga olish yoki kishi boshiga alohida belgilash muhim hisoblanadi.

Xitoyning quyidagi tajribalarini mamlakatimizda qo‘llash maqsadga muvofiq, deb o‘ylaymiz.

Ijtimoiy siyosatni ijtimoiy vazifalarni bajarishi nuqtai nazaridan sinflarga ajratish. Ommaviy ravishda barchaga taalluqli bo‘lgan va alohida qatlam vakillariga tegishli bo‘lgan islohotlar rejasini ishlab chiqishga e‘tibor qaratish.

Mehnat bozorida vujudga kelgan talabni inobatga olgan holda oliy ma‘lumot talab etadigan va talab etmaydigan tarzda tizimlashtirish. Bunda mehnat qilishning malaka sinflarini joriy etish va uni mehnat bozori talablariga moslashtirish.

Aholini davlat budjetidan ijtimoiy himoya qilishda yosh toifalariga ham e‘tibor berish, bunda asosiy ishchi kuchi qatlamini qayta tiklash va malakasini rivojlantirish tizimiga urg‘u berish lozim deb o‘ylaymiz.

O‘zbekistonda ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda ilg‘or tajribalarning ayrim xususiyatlarini qo‘llashga e‘tibor qaratilishi joriy ijtimoiy siyosatni yanada mustahkam bo‘lishga zamin hozirlaydi, deb hisoblaymiz.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi **“O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishda budjet siyosati yo‘nalishlaridan foydalanish tendensiyalari tahlili”** deb nomlangan bo‘lib, unda dissertatsiyaning tahliliy qismlari bayon etilgan. Mazkur tahlillarda mamlakatda kambag‘allikni qisqartirishning ijtimoiy siyosat omili tahlili, O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishda budjetning ijtimoiy siyosati, ta‘lim va sog‘liqni saqlash sohalarining kambag‘allikni qisqartirishdagi o‘rni tahlili kabi jihatlarga tadqiq etilgan.

Bizningcha, 2-jadval ma‘lumotlarini tahlil qilish orqali quyidagilarni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin:

ijtimoiy soha xarajatlari boshqa xarajat guruhlariga kabi o‘sib borish tendensiyasiga ega bo‘lmoqda. Jumladan, ijtimoiy soha xarajatlari 2023-yilda 137,2 trln so‘mni tashkil etgani holda 2018-yilga nisbatan 3,2 barobarga ortgan bo‘lsa, 2022-yilda 105,6 trln so‘mni tashkil etgan;

ta‘lim xarajatlari ijtimoiy soha xarajatlarining asosiy qismini tashkil qilgani holda o‘sib borish tendensiyasini ko‘rsatmoqda. Birgina 2020-yilda (30,0 trln so‘m) pandemiya sababli miqdor jihatidan 2019-yilga (33,5 trln so‘m) nisbatan past bo‘lgan bo‘lsada 2023-yilda 61,2 trln so‘mni tashkil etib o‘sish tendensiyasiga

qaytgan. Mazkur xarajatlar 2022-yilda 50,2 trln so‘mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 1,2 barobarga o‘sganligi o‘shish tendensiyasi davom etganligini ko‘rsatmoqda;

sog‘liqni saqlash xarajatlari ham ijtimoiy soha xarajatlari tarkibida salmoqli o‘rinni egallagan va 2018-2023-yillarda doimiy o‘shib bormoqda. Xususan, 2018-yilga nisbatan (9,4 trln so‘m) 2023-yilda sog‘liqni saqlash sohasiga uch barobar ko‘proq xarajat qilingan va 31,0 trln so‘mni tashkil etgan. Mazkur xarajatlar 2022-yilda esa 27,3 trln so‘m xarajat qilingan va bu 2021-yilda amalga oshirilgan xarajatlarga nisbatan 117,0 foizga ko‘pni tashkil etmoqda;

ijtimoiy soha xarajatlari tarkibida nafaqalar, moddiy yordam va kompensatsiyalar xarajatlari eng yuqori o‘shish tendensiyasiga ega xarajat moddalaridan biri bo‘lib, 2023-yilda 19,2 trln so‘mni tashkil etib, 2018-yilga nisbatan qariyb 6 barobarga o‘sgan. Bundan tashqari, 2022-yilda davlat budjetidan 19,4 trln so‘mlik nafaqalar, moddiy yordam va kompensatsiyalar to‘langan bo‘lib, bu O‘zbekiston tarixidagi mazkur yo‘nalishga davlat budjetidan sarflangan eng yuqori miqdordagi nafaqalardir;

aholi bandligi darajasini oshirish xarajatlari ham ijtimoiy soha tarkibidan joy olgan bo‘lib, nobarqaror o‘shish sur‘atlariga ega. Xususan, 2018-yilda mazkur yo‘nalishda 0,6 trln so‘m xarajat amalga oshirilgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib bu 1,7 trln so‘mga yetgan. Lekin 2021 va 2022-yillarda mazkur maqsadlarga mos ravishda 0,8 va 0,9 trln so‘m yo‘naltirilgan. Bizningcha ushbu yillarda aholi bandligi darajasini oshirish xarajatlarining pasayishi bevosita ishsizlik darajasining mo‘tadillashishi hamda pandemiya bilan bog‘liq;

## 2-jadval

### Ijtimoiy soha xarajatlari tarkibi to‘g‘risida ma‘lumot (trln so‘mda)<sup>9</sup>

Ko‘rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023
<b>Jami ijtimoiy xarajatlar</b>	<b>42,9</b>	<b>63,5</b>	<b>74,2</b>	<b>92,6</b>	<b>117,7</b>	<b>137,2</b>
<i>shundan:</i>						
ta‘lim	20,7	33,5	30,0	39,6	50,2	61,2
sog‘liqni saqlash	9,4	15,0	19,4	23,3	27,3	31,0
madaniyat va sport	1,3	2,4	2,3	3,6	4,3	5,3
fan	0,4	0,7	0,8	1,1	1,5	1,7
nafaqalar, moddiy yordam va kompensatsiyalar	3,2	4,7	8,2	10,8	19,4	19,2
aholi bandligi darajasini oshirish xarajatlari	0,6	1,2	1,3	0,8	0,7	1,7
Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga subsidiyalar			9,1	11,3	11,1	13,8
uy-joylar qurish dasturida qatnashayotgan banklar uchun kredit liniyalari	3,6	4,1	1,9	0,7	1,0	1,1

<sup>9</sup> Moliya vazirligi ma‘lumotlari. Internet manba: www.mf.uz Murojaat qilingan sana 2024-yil 11-mart

Bizningcha, ijtimoiy soha xarajatlarning aksariyat tarkibiy qismlari o'sib borish tendensiyasini ko'rsatmoqda. Ulardagi o'sishning turlicha ekanligi umumiy ijtimoiy soha xarajatlari tarkibidagi xarajatlarning ulushini o'zgarishiga olib kelgan. Bunday o'zgarishlar esa kambag'allikni qisqartirishda budget vositalarining eng yirigi bo'lgan ijtimoiy sohada olib borilayotgan siyosatning yo'nalishini aniqlashga xizmat qiladi (2-jadvalga qarang).

3-jadvalda yuqorida ta'kidlab o'tilganidek ijtimoiy nafaqalarning tarkibini tahlil qilish uchun tayyorlangan bo'lib, unda asosiy nafaqalar turlari hamda miqdori bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Ajratilgan mablag' miqdori va qamrovi bo'yicha ijtimoiy nafaqalar tarkibida bolali va kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar salmoqli o'rin egallaydi. Jumladan mazkur nafaqalar o'z ichiga quyidagi nafaqa turlarini jamlaydi:

1. Bola ikki yoshga to'lguniga qadar uni parvarishi nafaqasi;
2. 14 yoshgacha bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa;
3. Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam.

4-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, 2019-yilda bolali va kam ta'minlangan oilalarga nafaqalarni oluvchilar qariyb 545,0 mingni nafaqalar umumiy miqdori 2,0 trln so'mni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2020-yilda mos ravishda 918,0 ming oluvchini va 3,2 trln so'mni, 2023-yilda esa 2,5 mln oluvchini hamda 12,3 trln so'mni tashkil qilmoqda.

### 3-jadval

#### Ijtimoiy nafaqalar tarkibi to'g'risida ma'lumot, (mlrd so'mda)<sup>10</sup>

T/r	Xarajatlar	2019-yil		2020-yil		2021-yil		2022-yil		2023-yil	
		soni	summasi	soni	summasi	soni	summasi	soni	summasi	soni	summasi
<b>Jami</b>		<b>825</b>	<b>3 364</b>	<b>1 219</b>	<b>4 876</b>	<b>1 561</b>	<b>7 466</b>	<b>2 469</b>	<b>14 096</b>	<b>2 556</b>	<b>15 271</b>
1	Bolali va kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar	545	2 035	918	3 235,7	1 237	5 435,7	2 118	11 442	2 199	12 338
2	Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida muhtoj oilalarga bir martalik moddiy yordam	13,86	8,6	16	12,1	18	17,4	18	21	24	19
3	Bolalikdan nogironlik nafaqasi	266,33	1320,1	285	1 628,2	306	2 012,8	333	2 633	333	2 914

Bizningcha, bolali va kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar oluvchilar soni va nafaqalar umumiy miqdoridagi o'sishga pandemiya ham o'z ta'sirini o'tkazgan bo'lsada, 2019-2023-yillardagi ko'rsatkichlar shuni ko'rsatmoqdaki mazkur

<sup>10</sup> Fuqarolar uchun byudjet nashrlari ma'lumotlari asosida tayyorlangan. Internet manba: [www.openbudget.uz](http://www.openbudget.uz)  
Murojaat qilingan sana 2024-yil 11-mart

nafaqalar mavjud kambag'allik darajasini oshishiga yo'l qo'ymaslikning vositasiga aylanmoqda.

Fikrimizcha, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida muhtoj oilalarga bir martalik moddiy yordam berilishi tahlilimizning birinchi rejasida ta'kidlaganimiz aholi daromadlarining hududlar kesimida bir xilda emasligi sababli ayrim hududlarda yuzaga keladigan kambag'allikni qisqartirishning yaqqol misolidir. Jumladan, 2019-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatidagi 13,8 ming nafar muhtoj oilalarga jami 8,6 mlrd so'mlik bir martalik moddiy yordam ajratilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2020-yilda mos ravishda 15,8 ming oilaga 12,1 mlrd so'm, 2023-yilda esa qariyb 24,0 ming oilaga 19,0 mlrd so'm mablag' ajratilgan.

Bolalikdan nogironlik nafaqasi ham keskin o'sib borayotgan nafaqa turi bo'lib, 2019-yilda 266,3 ming oluvchilarga 1,3 trln so'm yo'naltirilgan bo'lsa, 2020-yilda qariyb 285,0 ming oluvchilarga 1,6 trln so'm, 2021-yilda esa 306,4 ming oluvchiga 2,0 trln so'm mablag' yo'naltirilgan. Mazkur nafaqalar mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirishda budjet siyosatining inklyuzivligini ko'rsatib beradi. Shuningdek, bizningcha nogironlik holatidagi aholi qatlami kambag'allikka eng moyil qatlam hisoblanadi va ularni moddiy qo'llab-quvvatlash umumiy kambag'allikni qisqartirishda muhim hisoblanadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish uchun budjet siyosatidan foydalanishda quyidagi xarajat yo'nalishlariga asosiy ustuvorlik berilmoqda:

1. Inson kapitalini rivojlantirish yuzasidan ijtimoiy soha (shu jumladan, ta'lim va sog'liqni saqlash) xarajatlari;
2. Iqtisodiy o'sishning asosiy shartlaridan bo'lgan infratuzilmani yaratish uchun investitsiya va iqtisodiyot xarajatlari;
3. Aholi daromadlarlarini oshirishga xizmat qiluvchi tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash (masalan, subsidiyalash va kafolatlar tizimi) xarajatlari;
4. Mavjud kambag'allik darajasini oshishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida ijtimoiy kam ta'minlangan va kambag'allik chegarasida bo'lgan aholiga pensiya va ijtimoiy nafaqalarga xarajatlar;
5. Barcha darajadagi kambag'allikni qisqartirish tadbirlarini samarali amalga oshirish uchun davlat boshqaruvi, adliya va prokuratura va sud organlari faoliyati xarajatlari.


Bizningcha, mazkur xarajat yo'nalishlari kambag'allikni qisqartirishda vosita sifatida tan olingan barcha yo'nalishlarni qamrab oladi va yaqin kelajakda mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiya ishining **“O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirishda budjet siyosati ustuvorliklaridan foydalanish istiqbollari”** deb nomlangan uchinchi bobida kambag'allik darajasini aniqlashda insonlarning xususiy ko'rsatkichlarini baholash va uning tendensiyalari, O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishda budjet siyosatidan foydalanishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy xulosalar va takliflar shakllantirilgan.

O'zbekiston Respublikasi budjetidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatni baholash bo'yicha anketa so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma Samarqand

shahrida istiqomat qiluvchilardan 2022-yil avgust-noyabr oylarida onlayn shaklda ([https://docs.google.com/forms/d/1Cp\\_eR9QobFUyutnsqhRCWdn71bxi8O4yewDprJvsvy04/edit?pli=1#responses](https://docs.google.com/forms/d/1Cp_eR9QobFUyutnsqhRCWdn71bxi8O4yewDprJvsvy04/edit?pli=1#responses) manzilda joylashgan) savollarga javoblar shakllantirildi. Anketa so‘rovnomasida 138 nafar respondentlar ishtirok etishdi. Anketa so‘rovnomasida respondentlarga quyidagi savollar berilgan: jinsi, yoshi, ma‘lumoti, daromadga egaligi, bo‘sh vaqtda nima qilishligi, respondent yoki uning oila a‘zolaridan biror kishi davlatdan qanday turdagi nafaqa yoki yordam pulini olishi, shifokorga tashrif buyurishi va davlatning ijtimoiy yordamini baholashi kabi savollar.

So‘rovnomaning “Daromadga egamisiz?” savolida ham 4 ta javob bandi mavjud bo‘lib, ular tahlillarni amalga oshirishda daromadni tasniflashga imkon beradi: 1) Shaxsiy biznesning mavjudligi; 2) Doimiy ish haqiga egaligi; 3) Mavsumiy ishlar bilan bandligi; 4) Daromadim yo‘qligi kabilar bilan izohlashimiz mumkin.



**2-rasm. Respondentlarning daromad manbalari bo‘yicha taqsimlanishi, nafar<sup>11</sup>**

Birinchi savol bo‘yicha jami 12 nafar respondent ishtirok etgan (umumiy respondentlarning 8,7%), ulardan 1 nafari ayol va 11 nafari erkaklar. Doimiy ish haqiga egaligi to‘g‘risidagi savolga 67 nafar respondent ishtirok etgan bo‘lib (umumiy respondentlarning 48,6%), ulardan 14 nafar ayol va 53 nafari erkaklar. Mavsumiy ishlar bilan bandlik to‘g‘risidagi savolga 33 nafar respondent ishtirok etgan bo‘lib (umumiy respondentlarning 23,9%), ulardan 4 nafar ayol va 29 nafari erkaklar. Daromadi yo‘q, ishsizlar bo‘yicha savolga 26 nafar respondent javob berishgan bo‘lib (umumiy respondentlarning 18,8%), ulardan 8 nafar ayol va 18 nafari erkaklar (2-rasmga qarang).

So‘rovnomada ishtirok etganlarning yosh toifasi ma‘lumot va daromad darajasiga teskari proporsional ekanligini ko‘rish mumkin. Demak, insonlarning kichik yoshda bo‘lishi kambag‘allik darajasini pasaytirishda inobatga olinishi zarur

<sup>11</sup> Tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan

Savollarga berilgan javoblar o'rtasida korrelyatsiya koeffitsiyentlari

	Jinsingiz	Yoshingiz	Ma'lumotingiz	Daromadga egamisiz?	Bo'sh vaqtinigizda nima qilaisiz?	Siz yoki oilangiz davlatdan quyidagilarning qaysi birini oladi?	Shifokor ko'rigiga borib turasizmi?	Davlatdan ijtimoiy yordam olishni qanday baholaysiz?
Jinsingiz	1	-,315**	-,164	-,096	,061	-,024	,164	,230**
			,000	,261	,478	,778	,055	,007
Yoshingiz	138	138	138	138	138	138	138	138
		-,315**	1	-,089	,013	-,033	-,025	,044
Ma'lumotingiz	,000	138	,302	,292	,880	,704	,773	,608
	138	138	138	138	138	138	138	138
Daromadga egamisiz?	-,164	-,089	1	,505**	,061	-,155	,143	-,271**
	,055	,302	138	,000	,474	,069	,095	,001
